

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUN, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMİY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-184-1**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 13-iyun

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-184-1**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### BIOLOGIYA FANLARI

*Salimova Hilola*

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA OZIQ MODDALAR ZARHIRASI (G'ijduvon tumani misolida) ..... 5-10

### IQTISODIYOT FANLARI

*Kadirova Shaxnoza*

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARNING SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH ..... 11-14

### YURIDIK FANLARI

*Rahmonov Abbos*

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKİSTON QONUNCHILIGI BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI ..... 15-18

*Ernazarova Feruza*

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKİSTON KONSTITUTSIYASIDA IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI ..... 19-22

*Donayeva Aziza*

"ATROF-MUHİTNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA SUN'İY INTELLEKTNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH" ..... 23-29

*Sobirov Temur*

AUTSORSING, AUTSTAFFING VA XODIMNI BOSHQA ISH BERUVCHIGA VAQTINCHA XIZMAT SAFARIGA YUBORISH: HUQUQIY ASOSLAR, TA'RIFLAR VA O'ZBEKİSTONDAGI AMALIYOT ..... 30-34

*Тогаймуродова Камола*

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЕ РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ НОТАРИАТА И ГОСУДАРСТВЕННОЙ РЕГИСТРАЦИИ СДЕЛОК ..... 35-38

*Бобоева Муслима*

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОСПОСОБНОСТИ И ДЕЕСПОСОБНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ ..... 39-42

*Tuymayev Asadbek*

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJY QONUNCHILIK ..... 43-46

*Nizomova Khosiyatkhon*

PROHIBITION OF DISCRIMINATION IN NATIONAL LABOR LAW ..... 47-49

*Qadamov Javohirbek*

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMoya QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI ..... 50-55

*Ergashova Mamura*

MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHDA SUD TARTIBINING USTUVORLIGI: QONUNCHILIK NAZARIYASI VA SUD AMALIYOTI ..... 56-60

*Isaqulova Elmira*

SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI ..... 61-66

<i>Амирова Умидা</i>	
ПРОБЛЕМЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА ИНОСТРАННЫМИ ГРАЖДАНАМИ .....	67-70
<i>Xursanov Shamsiddin</i>	
XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR .....	71-74
<i>Fayziyev Xayriddin, Zokirkonov Zoxidjon</i>	
МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИДА ATTESTATSIYA VA UNING HUQUQIY АНАМИЯТИ .....	75-78
<i>Исомухамедова Мадина</i>	
ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ ТРЕТЬЕГО ЛИЦА: МЕДИАЦИЯ, ПРИМИРЕНИЕ И АРБИТРАЖ КАК ПРОЦЕСС, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ПРЕКРАЩЕНИЮ КОНФЛИКТОВ .....	79-83
<i>Абдурахмонов Асадбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ .....	84-87
<b>TIBBIYOT FANLARI</b>	
<i>Арипджанова Фарзона</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СД 2 ТИПА С МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЖБП) .....	88-92

## SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI

### Isaqulova Elmira

Toshkent davlat yuridik universiteti  
biznes huquqi yo'nalishi magistranti,  
Toshkent, O'zbekiston  
E-mail: [elmira\\_isakulova100@gmail.com](mailto:elmira_isakulova100@gmail.com)  
Tel: +998 94 245 99 22

**Annotation.** mazkur maqlada smart-kontraktlar tushunchasi, kelib chiqishi, ishlash mexanizmi va amaliy qo'llanish doiralari tahlil qilingan. Smart-kontraktlar dasturiy ta'minot vositasida avtomatik tarzda bajariladigan, ishtirokchilar o'rtaсидagi kelishuvlarni vositachilarsiz amalga oshiruvchi raqamli shartnomalardir. Ularning paydo bo'lishi 1990-yillarda Nik Szabo tomonidan ilgari surilgan nazariy g'oyalarga borib taqaladi. Bugungi kunga kelib, blokcheyn texnologiyasi yordamida smart-kontraktlar moliyaviy xizmatlar, sog'liqni saqlash, ovoz berish tizimlari kabi ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda. Maqlada ushbu kontraktlarning afzalliklari — xavfsizlik, tezkorlik, arzonlik, va ishonchlilik — bilan bir qatorda, ularning keng joriy etilishida yuzaga keladigan huquqiy va texnik muammolar, xususan, kodlash va o'zgartirib bo'lmaslik (immutability) muammolari ham yoritilgan. Xulosa sifatida, smart-kontraktlar kelajakdag'i raqamli huquqiy munosabatlarning asosi bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** smart kontraktlar, blokcheyn, raqamli shartnoma, avtomatlashtirish, Nik Szabo, Ethereum, DeFi, DApps, huquqiy kodlash, immutability, ishonch muammosi, Web 3.0, raqamli iqtisodiyot, kriptografiya, shartnoma huquqi.

## THE TERMINOLOGY, THE ORIGIN AND IMPORTANCE OF SMART CONTRACTS

### Isakulova Elmira

Master's student of Business Law in  
Tashkent State University of Law,  
Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the concept, origin, operational mechanism, and practical application domains of smart contracts. Smart contracts are digital agreements executed automatically through software, facilitating interactions between parties without the need for intermediaries. Their conceptual foundation can be traced back to the 1990s, when theoretical propositions were introduced by Nick Szabo. In the present day, with the advancement of blockchain technology, smart contracts have found application across various sectors, including financial services, healthcare, and electronic voting systems. The article highlights the core advantages of smart contracts—security, speed, cost-efficiency, and reliability—while also addressing the legal and technical challenges impeding their widespread implementation. These include difficulties in legal-to-code translation and the issue of immutability once contracts are deployed on a blockchain. The study concludes by emphasizing the potential of smart contracts to become the cornerstone of future digital legal relations.

**Keywords:** smart contracts, blockchain, digital contract, automatization, Nick Szabo, Ethereum, DeFi, DApps, legal coding, immutability, trust issues, Web 3.0, digital economy, cryptography, contract law.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-184-1/uzb-13>

**Kirish.** Zamonaviy axborot texnologiyalarining, xususan, blokcheyn va kriptografik tizimlarning jadal rivojlanishi huquqiy munosabatlar shakllanishi va tartibga solinishiga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shunday innovatsion vositalardan biri bo'lgan **smart kontraktlar** (aqli shartnomalar) – inson aralashuvlari, avtomatik tarzda bajariladigan raqamli kelishuvlar sifatida

shartnomaviy huquq institutiga yangi yondashuvlarni olib kirmoqda. Smart kontraktlar shunchaki texnologik yechim emas, balki an'anaviy shartnomalar tizimi, fuqarolik huquqi prinsiplari va yuridik javobgarlik mexanizmlari bilan murakkab o'zaro aloqaga kirishgan huquqiy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda.

Anglo-sakson va Romano-german huquqiy tizimlarida smart kontraktlarga nisbatan yondashuvlar sezilarli farq qiladi: AQSh va Buyuk Britaniyada ushbu kontraktlar huquqiy kuchga ega deb tan olinishi mumkin bo'lsa, qit'a Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Germaniya va Fransiyada ularning huquqiy mohiyati atroflicha tahlil qilinmoqda. Bunday yondashuvlar tafovuti shartnoma tuzish tamoyillari – avtonomiya, forma erkinligi, aksept va oferta mexanizmlari – hamda sud amaliyotida turlicha talqin qilinishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida esa smart kontraktlar bo'yicha maxsus normativ-huquqiy asos hali shakllanmagan bo'lib, ularning huquqiy tabiatni, amal qilishi, hamda kelajakdagi qo'llanilishi ochiq qolmoqda. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlarida shartnoma tuzishning an'anaviy usullari belgilangan bo'lsa-da, raqamli va avtonom shartnomalar – xususan, smart kontraktlar – haqida maxsus normativ aniqlik mavjud emas. Shu sababli, bunday kontraktlarning yuridik kuchi, huquqiy javobgarlik, nizolarni hal etish mexanizmlari O'zbekiston huquqshunosligi oldida tahlil va normativ asos yaratish kabi dolzarb vazifalarni qo'yemoqda.

Ushbu maqolada smart kontraktlarning kelib chiqishi, huquqiy mohiyati, ishslash mexanizmi va ularning O'zbekiston huquqiy tizimida joriy etilish imkoniyatlari, shuningdek, xorijiy tajriba asosida huquqiy muammolar va yechimlar tahlil qilinadi.

Smart-kontraktlar markazlashmagan, tarmoqli ma'lumotlar bazasida voqeа yoki harakat asosida ishlaydigan dastur hisoblanadi. „Smart kontraktlar“ tushunchasi avtomatik ravishda tomonlar kelishuvining barcha qismlarini bajaruvchi va uni blockchain platformasida saqlovchi kompyuter kodi deb ham ta'riflanadi [7, B. 2].

Smart kontraktlar tushunchasiga dastlab 1996-yilda Nik Szabo ismli shaxs tomonidan 'Kelishuvga erishishni yoki shartnomani raqamli tuzuvchi, tasdiqlovchi, amalga oshiruvchi kompyuter dastur yoki protokol. Smart kontraktlar tranzaksiyalarni uchinchiligi tomonlarsiz amalga oshirishga imkon beradi. Smart kontrakt raqamli formatdagi tomonlar amalga oshirishi mumkin bo'lgan ofertalar yig'indisi', deya ta'rif berilgan[7, B. 3]. Smart kontraktlar tushunchasini ta'riflash dastlab 1990-yillarda raqamli shartnomalar va raqamli valyutalar sohasida tadqiqot olib borgan amerikalik kriptograf va raqamli olim Nik Szabo (Nick Szabo) tomonidan taklif etilgan. U 1998-yilda "Bit Gold" deb nomlangan virtual valyutani ishlab chiqqani bilan tanilgan. Aqli shartnomalar tushunchasini u 1994-yilda nashr etilgan "Smart Contracts: Building Blocks for Digital Free Markets" nomli asarida taqdim etgan[7, B. 1-4]. O'sha davrda blokcheyn texnologiyasi mavjud bo'lmagani uchun Szabo ilgari surgan g'oyalar amaliy jihatdan sinovdan o'tkazilmagan edi. Szabo o'z asarida aqli shartnomalarni quyidagicha ta'riflagan:

"Aqli shartnomalar — bu kelishuvlarni avtomatik tarzda bajaradigan, vositachilarning ishtirokchilarga natijalarni imkon qadar tez ko'rsatishni ta'minlaydigan vositalardir".

Shuningdek, Szabo smart kontraktlar va vending mashinalarning, foydalanuvchi pulni vending mashinaga kiritadi, kerakli mahsulotni tanlaydi va bu tizim orqali bajarilishi smart kontraktlar faoliyatiga o'xshatilgan [7, B. 3]. Vending mashinalar ham smart kontraktlar singari

muayyan bir shartlar bajarilgandan keyin aniq bir harakatlarni bajarishni biladi. Vending mashinalarning ishslash mexanizmi “agar... bajarilsa, u holda” (if...then) mantig'iga asoslangan bo'lib, bu yerda to'lov amalga oshirilgach, qaytarib bo'lmaydigan harakatlar ishga tushadi: pul saqlanadi va tovar taqdim etiladi. Bu harakatlar zanjiri tangani tashlash orqali faollashtirilganidan so'ng to'xtatib bo'lmaydi yoki bekor qilib bo'lmaydi. Bajarilish avtomatik tarzda, inson aralashuviz sodir bo'ladi. Bu harakatlar ketma-ketligi vending mashinasi dasturiga oldindan kodlangan holatda joylashtirilgan bo'ladi.

Aqli shartnomalarni vending mashinalar bilan solishtirishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan yana bir jihat shuki, ushbu xizmatlardan foydalanish uchun foydalanuvchining shaxsini tasdiqlash talab qilinmaydi. Asosan, kimda mablag' bo'lsa, vending mashinasidan erkin foydalanishi mumkin. Ushbu jarayon yuqori darajada avtomatlashtirilgan bo'lib, hech qanday avtorizatsiyani talab qilmaydi — vending mashina faqat foydalanuvchining mablag'iga asoslanib harakat qiladi. Xuddi shunday, aqli shartnomalar ham o'ziga xos "qora quti" (black-box) tarzida ishlaydi, ya'ni ma'lum bir kiritma (input) asosida kutilgan natija (output) hosil bo'ladi [4, B. 94].

Ta'kidlash joizki, aqli shartnomalar blokcheyn texnologiyasidan avval ham mavjud bo'lgan. Vending mashinalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Biroq, ilgari texnologik cheklovlardan tufayli aqli shartnomalar keng e'tiborga tushmagan. Blokcheyn texnologiyasining paydo bo'lishi ushbu konsepsiyanı yana muhokama markaziga olib chiqdi va texnologik taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Blokcheyn aqli shartnomalarning oddiy avtomatlashtirilgan kelishuvlardan, to'liq avtonom, o'z-o'zidan bajariladigan va o'z-o'zini nazorat qiluvchi shartnomalargacha rivojlanishini ta'minladi [4, B. 99; 8, B. 123]. Aqli shartnomalar elektron shartnomalar, kriptografiya, buzib bo'lmaydigan va algoritmik bajarilish, hamda konsensus asosidagi texnologik yutuqlarni birlashtiradi [3, B. 4; 4, B. 96].

Yuqorida aqli shartnomalar tushunchasining orginal ta'rifi jihatidan tahlil qilindi. Shuningdek, smart kontraktlar tushunchasiga ishslash dasturi asosida ham ta'riflanib, 2014 - yilda Ethereum asoschilaridan biri Vitalik Buterin blokcheyn sammitida aqli shartnomalar qanday ishlashini quyidagicha izohlagan:

"Shartnomalar kompyuter tili orqali tarjima qilinadi va bloklarga saqlanadi. Ushbu shartnomalar ishtirokchilari taqsimlangan reyestrlarga ko'chiriladi va ularning shaxsi to'liq anonim saqlanadi. Kod parchalari aniq vazifalar va tafsilotlar (vaqt, qayerdan qayerga, qanday holatda va h.k.) bilan tayyorlanadi. Belgilangan vaqt kelganida, u avtomatik harakat qilib tranzaksiyani bajaradi. Agar zarur shartlar bajarilgan bo'lsa, tranzaksiya muvaffaqiyatli yakunlanadi yoki bajarilishdan oldin bekor qilinadi [2, B. 5]."

Blokcheyn tushunchasi ilk bor Bitcoinning "oq qog'ozi"da paydo bo'lib, markazlashmagan tengdan-teng (peer-to-peer) raqamli token almashinuvi tizimini ilgari surdi. Bu blokcheynning birinchi avlodni hisoblanadi, bu yerda tarmoq foydalanuvchilar uchun raqamli valyutani yaratadi. Ishtirokchilarning o'zaro ishonchga asoslanmagan (trustless) va markazlashmagan muhiti biznes mantiqini xavfsiz ravishda bajarishga imkon beradi [4, B. 47; 8, B. 121].

2014-yilda Ethereum tomonidan ilgari surilgan aqli shartnomalar blokcheynning ikkinchi avlodini boshlab berdi. Turing-to'liq dasturlash tili orqali har qanday dastur tuzish va uni mashina (masalan, Ethereum Virtual Machine – EVM) tomonidan bajarilishini ta'minlash mumkin bo'ldi. Xuddi vending mashinasi kabi, dastlabki qo'llanmalar moliyaviy sohalarga qaratilgan bo'lib, markazlashmagan moliyaviy xizmatlar (DeFi) shular jumlasidandir. Kelajakda

esa asosiy e'tibor to'g'ri ishlovchi markazlashmagan ilovalar (DApp) yaratishga qaratiladi [2, B. 7; 5, B. 98].

Fuqarolik huquqida odatiy shartnoma qonuniy bo'lishi uchun shartnoma elementlari tomonlar (huquqiy layoqatga ega subyektlar), oferta va aksept (shartnoma tuzish erkinligi) va shartnoma predmeti bo'lishi talab etiladi [6, B. 308–309; 10, B. 316].

Shuningdek, smart kontraktlar esa klassik shartnomalarga texnologiyalar kirib kelishi, shartnoma va blockchain tushunchalarining umumlashmasi hisoblanadi. Smart kontraktlar ta'rifi muhokamalarga sabab bo'lib, odatda, shartnomalarning raqamli formatda tuzilishi deb hisoblanadi, lekin smart kontraktlar kengroq jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, smart kontraktlar tuzishda kompyuter dasturi shartnoma subyekti bo'lishi va ikkinchi tomon bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi mumkin.

Aqli shartnomalarning hozirgi amaliy qo'llanilish sohalari:

**Qimmatli qog'ozlar (securities):**

Aqli shartnomalar vositachilarni chetlab o'tish, kontragent xavfini va operatsion tavakkalchilikni kamaytirish imkonini beradi.

**Savdo moliyasi (trade finance):**

Aqli shartnomalar jarayonlarni optimallashtirishi, bajarilish va yetkazib berish vaqtlarini tezlashtirishi mumkin.

**Moliyaviy ma'lumotlarni qayd etish:**

Aqli shartnomalar ma'lumotlarning aniqligi va shaffofligini oshiradi [1, B. 17–18; 5, B. 97].

**Roud-Aylend (AQSh):**

Biznes litsenziyalash bo'yicha murakkab jarayonlar raqamli shaxs identifikatsiyasi va aqli shartnomalar yordamida soddalashtirildi va avtomatlashtirildi [4, B. 101].

Aqli shartnomalar — bu o'z-o'zini bajara oladigan shartnomalar bo'lib, xaridor va sotuvchi o'rtasidagi kelishuvlar kod satrlariga bevosita joylashtiriladi. Bu kodlar blokcheyn asosidagi platformalarda avtomatik ravishda ishlaydi. Aqli shartnomalarning asosiy vazifasi — tranzaksiyalarni izlanadigan, shaffof va qaytarib bo'lmaydigan tarzda amalga oshirishdir [6, B. 310; 8, B. 124]. Bugungi kunda ular Web 3.0 ekotizimining poydevori bo'lib xizmat qilmoqda va foydalanuvchilarga blokcheyn asosida o'zaro harakat qilish imkonini bermoqda.

Aqli shartnomalarning asosiy xususiyatlari va afzalliklari:

Ishonchsizlikka asoslangan, ammo ishonchli:

Aqli shartnomalar dasturlashtirilganidek bajariladi. Uchinchi tomon aralashuvi yo'qligi ishtirokchilarga natijalar oldindan belgilangan kod asosida ro'y berishiga to'liq ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Yuqori darajadagi xavfsizlik:

Shartnoma kodi butun tarmoq bo'ylab taqsimlangan o'zgartirib bo'lmaydigan blokcheyn reyestrida saqlanadi. Bu holat markazlashgan zaiflik nuqtalarini bartaraf etadi va butun tizimga yaxlit xavfsizlikni ta'minlaydi.

Kam xarajat:

Uchinchi tomonlar ishtirokisiz xarajatlar kamayadi, bu esa samaradorlikni oshiradi.

Yuqori tezlikda bajarilish:

Tranzaksiyalar bloklar hosil bo'lish vaqtiga qarab deyarli darhol yakunlanadi [3, B. 5; 4, B. 95; 10, B. 318].

Shu tarzda aqli shartnomalar kelishuv, tranzaksiya va qiymatni uzatish jarayonlarini soddalashtirishda samarali mexanizm sifatida ishlaydi. Bundan tashqari, ular maqsadli topshiriqlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, markazlashmagan ilovalar (DApps) harakati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aqli shartnomalarning dasturiy mantiqiyligi va amaliy sohalari:

Aqli shartnomalarning eng muhim jihatlaridan biri ularning dasturiy mantiqiyligidir. Bu xususiyat ularni har qanday an'anaviy sohalarga moslashtirish imkonini beradi, xususan:

zanjir ichidagi ma'lumotlarga kirish va ularni saqlash (on-chain data),

kiberxavfsizlik,

ovozi berish tizimlari (e-voting),

sog'liqni saqlashdagi ma'lumotlarni boshqarish.

Shunga qaramay, aqli shartnomalarning keng joriy qilinishi oldida hal qilinishi zarur bo'lgan ikki asosiy muammo mavjud: yuridik matnni dastur kodiga o'girish murakkabligi, shartnomani blokcheynga joylashtirish uchun uning barcha huquqiy tili kompyuter kodiga aylantirilishi kerak. Biroq, yuristlar odatda dasturchi emas, va aksincha, dasturchilar yuridik bilimga ega emas. Shuning uchun, kod mazmunan shartnoma maqsadini aniq aks ettirishiga ishonch hosil qilish uchun huquqiy va texnik mutaxassislar o'rtasida hamkorlik talab etiladi [3, B. 6; 6, B. 311].

Qayta tahrirlab bo'lmaslik (immutability): blokcheynda joylashtirilgan aqli shartnoma "toshga yozilgan" sifatida qaraladi — uni o'zgartirib bo'lmaydi. Markazlashmagan muhit afzal jihat bo'lishi mumkin, lekin bu holatda markaziy hakam yoki sud aralashuvi imkonи mavjud emas. Shu sababli, agar bir tomonadolatsizlikka uchragan deb hisoblasa, nizoni hal qilish mexanizmi mavjud bo'lmasligi mumkin.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Allen D., Lane A., Poblet M. The Governance of Blockchain Systems. – Melbourne: Melbourne School of Government, 2019. – 45 B.
2. Buterin V. Ethereum White Paper [Elektron resurs]. – URL: <https://ethereum.org/en/whitepaper/>.
3. Clack C. D., Bakshi V. A., Braine L. Smart Contract Templates: Foundations, Design Landscape and Research Directions [Elektron resurs] // arXiv:1608.00771, 2016. – 34 p. – URL: <https://arxiv.org/abs/1608.00771>.
4. De Filippi P., Wright A. Blockchain and the Law: The Rule of Code. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2018. – 230 B.
5. Mougayar W. The Business Blockchain: Promise, Practice, and Application of the Next Internet Technology. – Hoboken, NJ: Wiley, 2016. – 256 B.
6. Raskin M. The Law and Legality of Smart Contracts // Georgetown Law Technology Review. – 2017. – Vol. 1. – B. 305–341.

7. Szabo N. Smart Contracts: Building Blocks for Digital Free Markets. – 1996. – 35 B.
8. Tapscott D., Tapscott A. Blockchain Revolution. – London: Penguin, 2016. – 243 B.
9. Werbach K., Cornell N. Contracts Ex Machina // Duke Law Journal. – 2017. – Vol. 67, № 2.  
– P. 313–382.

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 13-iyun

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.  
– Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 13-iyun

**ISBN 978-9910-09-184-1**

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.